HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

BYUDJET TASHKILOTLARIDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Mustakil tadkikodchi
Utambetov Baxram Satmuratovich
baxramutambetov303@gmail.com
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.22901262

Jahon iqtisodiyotida davlat moliyaviy resurslarini boshqarish tizimining murakkablashuvi, ijtimoiy sohalarga yo‘naltirilayotgan budjet mablag‘lari hajmining ortib borishi, davlat xarajatlari natijadorligiga nisbatan jamoatchilik talabi kuchayishi hamda moliyaviy boshqaruvda ochiqlik va hisobdorlik mezonlarining ustuvor ahamiyat kasb etishi budjet tashkilotlarida ichki audit metodologiyasini ilmiy asosda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bugungi sharoitda ichki audit faqat moliyaviy xatolarni aniqlash yoki hujjatlar rasmiylashtirilishini tekshirish vositasi sifatida emas, balki budjet intizomini mustahkamlash, xarajatlarning maqsadliligi va natijadorligini baholash, ichki nazorat tizimidagi zaif jihatlarni aniqlash, moliyaviy yo‘qotishlarning oldini olish hamda boshqaruv qarorlarining asoslanganligini ta’minlovchi muhim institutsional mexanizm sifatida qaralmoqda. Shu bois davlat sektorida ichki auditning nazariy metodologik asoslarini chuqurlashtirish, uni rejalashtirish, o‘tkazish, dalillarni shakllantirish, natijalarni baholash va tavsiyalar ijrosini kuzatish jarayonlarini yagona ilmiy-uslubiy tizimga keltirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish, budjet mablag‘laridan foydalanishda qonuniylik, maqsadlilik, tejamkorlik va natijadorlikni ta’minlash, davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit xizmatlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha muhim tashkiliy-huquqiy asoslar shakllantirilmoqda. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda ichki audit xizmatining asosiy maqsadi davlat organlari va tashkilotlarida budjet intizomini mustahkamlash, budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari buzilish holatlarini profilaktika qilish, budjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini baholash hamda ichki audit faoliyati sohasidagi hujjatlar ijrosini ta’minlashdan iborat ekani belgilangan. Shu bilan birga, ichki audit xizmati davlat organlari va tashkilotlari markaziy apparatida mustaqil tarkibiy tuzilma sifatida tashkil etilishi nazarda tutilgani uning boshqaruv tizimidagi alohida institutsional maqomini ko‘rsatadi.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda davlat sektori ichki auditining bir necha asosiy yo‘nalishlari shakllangan. Birinchi yo‘nalish - ichki auditning institutsional mustaqilligi va xolisligini ta’minlash bo‘lib, bu yo‘nalishda IIA, CIPFA, INTOSAI va IDI tomonidan ichki audit xizmatining boshqaruv tizimidagi maqomi, audit obyektlaridan mustaqilligi va audit natijalarini rahbariyatga xolis taqdim etish mezonlari tadqiq etiladi. Ikkinchi yo‘nalish - xavfga asoslangan audit rejalashtirishini rivojlantirish bo‘lib, bunda PEMPAL, OECD, PEFA va World Bank tomonidan audit obyektlarini tanlashda xavf darajasi, moliyaviy ahamiyat, ichki nazorat zaifligi, oldingi tekshiruvlarda aniqlangan kamchiliklar va davlat xarajatlari natijadorligi kabi mezonlardan foydalanish zarurligi asoslanadi. Uchinchi yo‘nalish - audit dalillarini shakllantirish va tahliliy amallarni takomillashtirish bo‘lib, bu yo‘nalishda IIA, AICPA & CIMA, Rutgers Accounting Research Center hamda ACCA tomonidan audit dalillarining ishonchliligi, yetarliligi, hujjatlashtirilishi va natijalarni asoslashdagi roli chuqur

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

o‘rganiladi. To‘rtinchi yo‘nalish - audit tavsiyalari ijrosini monitoring qilish va ichki audit natijalarining boshqaruv qarorlariga ta’sirini baholash bo‘lib, bu masala IIA 5 Global Internal Audit Standards, CIPFA public sector internal audit yondashuvlari, PEFA baholash tizimi va ECA audit metodologiyasida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mavjud xorijiy tadqiqotlar va xalqaro metodologik hujjatlar ko‘proq umumiy davlat sektori auditi, ichki nazorat, xavflarni boshqarish, davlat moliyaviy boshqaruvi va fiskal shaffoflik masalalariga qaratilgan bo‘lib, ularni har bir mamlakatning byudjet tizimi, g‘aznachilik ijrosi, davlat xaridlari tartibi, byudjetdan tashqari mablag‘lar harakati va ichki audit xizmatlari faoliyatining milliy xususiyatlariga moslashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Uzbekiston Respublikasi jaxondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasini chukur urganish natijasida kabul kilgan, uziga xos millatimizning mentalitetidan kelib chikkan xolda, milliy kadriyatlarimizni uz ichiga oluvchi beshta tamoyilga asoslanadi. Albatda bu vazifani amalga oshirishda sièsatini tugri yuritish byudjet mablaglaridan tugri va okilona foydalanish maksadga muvofik buladi.

-Iqtisodiètning va xususan davlat moliyasini boshqarish-nishg o‘tish davriga xos bo‘lgan moliyaviy-iqtisodiy ziddiyatlari, byudjet ijrosi davlat byudjetining samarali ijrosini ta’minlash kabi muammolarning davlat global vazifalari sifatidagi ahamiyatining o‘sishi.

- O‘zbekiston Respublikasi bozor munosabatlarining shaklla-nishiga oid tub iqtisodiy islohotlar o‘tkazilishi davlatning moliya-byudjet va soliq sièsatini tubdan qayta qurishni, takror ishlab chiqarish jaraènida byudjet ijrosi rolining o‘zgarishini talab etganligi.

- Iqtisodiètni davlat tomonidan tartibga solishda byudjet tizimi rolining o‘sishi bilan va bozor iqtisodiètiga o‘tish sharoitida moliya mexaniz-mining faollashuvi, davlatning moliya-byudjet va soliq sièsati, byudjet orqali tartibga solish, moliyaviy mustaqillik va byudjet daromad bazasining mustahkamlanishi kabi muammolar yuzasidan ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishning yetishmasligi.

-. Bozor munosabatlariga o‘tish jaraèniga byudjet qurilishi, byudjet jaraèni, davlat byudjeti samarali ijrosini ta’minlashning hozirgi zamon muammolarini tadqiq etuvchi nazariy ishlanmalar va amaliy asoslarning sezilarli darajada zamon talabidan ortda qolaètganligi, ushbu muammolar bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishning zarurligi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat byudjeti samarali ijrosini ta’minlash yuzasidan islohotlar quyidagi dolzarb masalalarni o‘z ichiga olishi lozim: davlatning markazlashgan moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish; byudjet jaraèni va yangi byudjet tasnifini takomillashtirish; iqtisodièt muammolari va byudjet samarali ijrosini ta’minlash mexanizmini yaratish. Ushbu dissertatsiya hajmining cheklanganligi ushbu barcha muammolarni batafsil èritish imkonini bermaydi. Shuning uchun mazkur ishimizda biz faqatgina davlat byudjeti ijrosi samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganish bilangina cheklandik.

Moliya-byudjet islohotlarini o‘tkazish jaraèni, ijtimoiy iqtisodiy muammolarni hal etishda ular rolini oshirish va shu bilan bir vaqtda ular moliyaviy bazalarini mustahkamlash, butunlay yangi moliya-byudjet va soliq mexanizmini yaratish, byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish va davlat byudjeti ijrosini ta’minlashning uslubièti va tamoyillarini aniqlashni o‘z ichiga oladi.

Moliya-byudjet mexanizmi, byudjet qurilishi va byudjetlararo munosabatlar shakllanishi va taraqqiètining, davlat byudjeti samarali ijrosini ta’minlashning nazariy va amaliy jihatlari qator rus iqtisodchi-olimlaridan A.I.Aleksandrov, A.M.Birman, D.P.Bogolepov, VT.Boldmrev, • M.V.Vasileva, L.A.Drobozina, N.K.Kuchukova, LP.Pavlova, G.B.Polyak, V.M.Rodionova, M.V.Romanovskiy, B.M.Sabanti va boshqalarning ishlarida keng èritilgan.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

O‘zbek iqtisodchi-olimlaridan M.Sharifxo‘jayev, A.Vaxobov, A.O‘lmasov, H.Sobirov, O.Olimjonov, T.Malikov, A.Qodirov, Q.Yah’èev, E.Gadoyev, E.Akromov, D.Qozibekov, O.Jumanov, M.Yo‘ldoshev, X.Jamolov va boshqalar O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimining shakllanishi rivojlanishi va jaraènining muhim masalarini tadqiq etishga o‘zlarining muhim hissalarini qo‘shdilar. Shu bilan birga, shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasida hozirgi sharoitda byudjet amaliètiga qo‘yilaètgan yangi talablar, byudjet ijrosi samaradorligini ta’minlash, moliyaviy imkoniyatlarini mustahkamlash muammolari ahamiyatining o‘sishi ushbu jaraènlarni yanada chuqur tadqiq etishni, uning dolzarb muammolariga yechim topishni talab etadi.

Yuqoridagi fikrlar dissertatsiya ishi maqsadi va vazifalarini belgilashga asos bo‘ladi. Dissertatsiya ishining asosiy maqsadi sifatida O‘zbekiston Respublikasida byudjet qurilishi va byudjet amaliètining yangi talablari asosida davlat byudjeti ijrosi samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini tadqiq etish, byudjet ijrosi mexanizmini takomillashtirish va mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlash bilan birga byudjet ustidan moliyaviy nazoratni takomillashtirish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maydonga chiqadi.

Ushbu maqsadga erishish izlanish oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

-iqtisodièt taraqqiètining turli bosqichlarida O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimining mazmuni, mohiyati, funksiyalari va asosiy hal etishi lozim bo‘lgan masalalarni nazariy jihatdan qayta ko‘rib chiqish;

- O‘zbekiston Respublikasi byudjet qonunchiligidagi o‘zga-rishlarni tahlil etish va takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- hozirgi zamon byudjet tizimi amal qilishi va byudjet ijrosini samarali tashkil etish yuzasidan boy tajribalarni umul^shtirish va ulardan O‘zbekiston imkoniyatlarini baholash;

- Respublikasi sharoitida foydalanish byudjet ijrosini samarali tashkil etishning dolzarb muammolarini, jumladan, byudjet tizimi buginlari byudjet huquqlari va majburiyatlarini byudjet amaliètining yangi talablari asosida oshirish, byudjet tizimi bo‘ginlari daromad va harajatlarining to‘la ijrosini ta’minlash, barcha bo‘g‘inlarning byudjet mablag‘larini boshqarishdagi mustaqilliklarini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalarni asoslash;

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Khusniddin, E., & Mahammadsidik, A. (2022). Tourism Development for Baysun SPA in Uzbekistan as a New Destination. European Journal of Life Safety and Stability (2660 9630), 14, 96-100.
2. Maxamadumarovich, U. A., Obrenovic, B., & Amonboyev, M. (2012). Understanding the innovation concept. Journal on Innovation and Sustainability RISUS, 3(3), 19-26.
3. Mahamasiddiq, A. (2018). Establishing Stock Market Attractiveness and Investment Infrastructure in Uzbekistan through Effective Implementation of Corporate Governance Mechanisms. International Journal of Innovation and Economic Development, 4(1), 19-28.
4. Amonboev, M., & Khalilov, S. S. (2019). Main directions and prospects for the development of tourism industry. Economics and Innovative Technologies, 2019(3), 38.
5. Madrahimovich, R. N., & Mahammadsidik, A. (2016). Corporate Governance and Development: The Case of Uzbekistan. Journal of International Business Research and Marketing, 1(6), 31-36.